

Origin Of Echolalia In Children With Autism Spectrum Disorders And Corrective-Pedagogical Approaches

Zokirova Fozilaxon Zafarjon qizi

Student of Kokand University

zokirovafozila307@gmail.com

Annotation

This scientific work studies the origin of echolalia in children with autism spectrum disorders and its impact on speech development. Echolalia is analyzed as an important factor shaping the speech and communication characteristics of children with autism syndrome. The article shows the neurological and psychological foundations of echolalia, as well as its role in the development process in children with autism. As a result of the research, the importance of pedagogical approaches such as ABA therapy, visual aids and individual speech therapy classes for the effective correction of echolalia was emphasized. It was found that joint work with parents is important in developing speech and social communication skills in children with autism syndrome. Studies have shown that echolalia can be systematically reduced and transformed into functional speech in children with autism syndrome through special pedagogical methods.

Keywords: Autism, echolalia, speech development, communicative features, ABA therapy, visual aids, speech therapy exercises, neurological foundations, psychological mechanism, speech development, social communication.

Annotatsiya

Ushbu ilmiy ishda autizm spektri buzilishiga ega bolalarda exolaliyaning kelib chiqishi va uning nutq rivojlanishiga ta'siri o'rganilgan. Exolaliya, autizm sindromli bolalarning nutq va muloqotdagi xususiyatlarini shakllantiruvchi muhim omil sifatida tahlil qilindi. Maqolada exolaliyaning nevrologik va psixologik asoslari, shuningdek, uning autizmli bolalardagi rivojlanish jarayonidagi o'rni ko'rsatildi. Tadqiqotlar natijasida, exolaliyani samarali korreksiyalash uchun ABA terapiyasi, vizual qo'llanmalar va individual logopedik mashg'ulotlar kabi pedagogik yondashuvlarning ahamiyati ta'kidlandi. Autizm sindromli bolalarda nutq va ijtimoiy muloqot ko'nikmalarini rivojlantirishda ota-onalar bilan birgalikda olib borilgan ishlarning muhim ekani aniqlandi. Tadqiqotlar maxsus pedagogik metodlar orqali autizm sindromli bolalarda exolaliya tizimli ravishda kamayib, funksional nutqqa aylanishi mumkin ekani isbotlandi.

Kalit so'zlar: Autizm, exolaliya, nutq rivojlanishi, kommunikativ xususiyatlar, ABA terapiyasi, vizual qo'llanmalar, logopedik mashg'ulotlar, nevrologik asoslar, psixologik mexanizm, nutqiy rivojlanish, ijtimoiy muloqot.

Kirish. So'nggi yillarda autizm spektri buzilishiga ega bolalar bilan ishlash masalasi maxsus pedagogika va logopediya sohasida muhim ilmiy-amaliy yo'nalishlardan biriga aylandi. Autizm sindromli bolalarda ijtimoiy muloqot va nutq rivojlanishining o'ziga xos xususiyatlari kuzatilib, bu holat nutq faoliyatining turli darajadagi buzilishlari bilan namoyon bo'ladi. Ayniqsa, nutqning mazmuniy va kommunikativ jihatdan yetarli

shakllanmaganligi autizmga xos bo'lgan muhim belgilar qatoriga kiradi. Autizm spektri buzilishida nutqiy buzilishlar orasida exolaliya alohida o'rin egallaydi. Boshqa nutq nuqsonlari turli rivojlanish buzilishlarida ham uchrashi mumkin bo'lsa, exolaliya ko'proq autizmli bolalarda barqaror va tizimli tarzda namoyon bo'ladi. Bu holat bolaning nutqni mustaqil ravishda ishlab chiqish imkoniyatlarining cheklanganligi hamda tayyor nutq

birliklaridan muloqot vositasi sifatida foydalanishi bilan izohlanadi. Exolaliya ko'pincha nutqiy buzilish sifatida baholansa-da, zamonaviy ilmiy qarashlar ushbu hodisani bolaning kommunikativ ehtiyojlarini qondirishga qaratilgan o'ziga xos mexanizm sifatida talqin qiladi. Shu nuqtai nazardan exolaliyaning kelib chiqish sabablarini tahlil qilish, uning autizmli bolalar nutq rivojlanishidagi o'rnini aniqlash hamda samarali korreksion-pedagogik yondashuvlarni ishlab chiqish muhim ilmiy vazifa hisoblanadi.

Exolaliya so'zi yunoncha so'zdan kelib chiqqan bo'lib "exo" – aks, ovoz takrorlanishi, va "lalia" – nutq, gapirish degan ma'nolarni bildiradi. Shu sababli exolaliya so'zi "takrorlovchi nutq" degan ma'noni anglatadi. Exolaliya — bu bolaning atrofdagi shaxslar tomonidan aytilgan so'z, ibora yoki jumalarni mazmunini to'liq tushunmay turib yoki qisman tushunib, avtomatik tarzda takrorlashi bilan tavsiflanadigan nutq hodisasi. Xalq tilida esa "To'ti qush nutqi" deb ham yuritiladi. Autizm sindromli bolaga "Bu nima ?" deb savol berilsa u ham "Bu nima ?" deb javob qaytaradi. Bu esa autizm sindromli bolada javob berish ko'nikmasi yo'qligini anglatadi. Bundan tashqari boshqa nutq nuqsonlaridan ham farqlanadi. Misol uchun, dislaliya yoki artikulyatsion buzilishlarda bolaning niyati saqlanadi, faqat talaffuz yetishmaydi. Exolaliyada esa asosiy muammo — nutqning kommunikativ va maqsadga yo'naltirilganligining yetarli emasligi hisoblanadi.

Exolaliya turlari ikki asosiy guruhga bo'linadi:

Funksional exolaliya – bolaning takrorlashi ma'lum bir maqsad yoki kommunikativ niyat bilan bog'liq. Masalan, bola so'zlarni takrorlab, o'z ehtiyojini bildirishga harakat qiladi.

Markaziy exolaliya – bolaning nutqni takrorlashi ko'pincha tashqi rag'batlarsiz, avtomatik yoki refleksiv tarzda yuz beradi.

Bu tur odatda bolaning ijtimoiy muloqotga kirishish qobiliyatining cheklanganligini ko'rsatadi.

Exolaliya autizmli bolalarda muloqot rivojini aniqlash va korreksion ishlarni rejalashtirishda muhim indikator hisoblanadi. U bolaning tilni o'rganishdagi dastlabki bosqichi sifatida ham qaralishi mumkin, chunki bola eshitgan nutq namunalarini qayta ishlash orqali tilning ritmi, intonatsiyasi va grammatik tuzilishini o'zlashtiradi.

Exolaliyaning nevrologik va psixologik asoslari

Autizm spektri buzilishiga ega bolalarda exolaliyaning paydo bo'lishi bir nechta nevrologik va psixologik mexanizmlar bilan izohlanadi.

1. Nevrologik asoslari

Miya hududlari va neyron tarmoqlarining yetarli rivojlanmaganligi: Autizmli bolalarda Broka va Vernike hududlari (nutq ishlab chiqarish va tushunish markazlari) hamda prefrontal korteksning ishlashi odatdagidek emas. Bu hududlar nutqni yaratish, ma'no berish va muloqotga yo'naltirish vazifalarini bajaradi. Shu tufayli bola tayyor nutq birliklarini (so'z, ibora) mustaqil ishlab chiqolmay, avtomatik tarzda takrorlaydi.

Spektral neyron disfunktsiyasi: Autizmli bolalarda miya neyronlari o'rtasidagi signal almashish (sinaptik uzatuvchanlik) buzilgan bo'lishi mumkin. Natijada bola yangi so'z va iboralarni spontan ravishda ishlab chiqish qiyinlashadi va ularni eshitilgan shaklda takrorlashga tayanadi.

Sensor integratsiya buzilishi: Ko'rish, eshitish va propioseptiv tizimlarining uyg'un ishlamasligi bola nutqini maqsadga yo'naltirishni qiyinlashtiradi. Shu sababli exolaliya — muloqotni boshlash uchun kompensator mexanizm sifatida paydo bo'ladi.

2. Psixologik asoslari

Ijtimoiy muloqot qobiliyatining yetishmasligi: Autizmli bolalar boshqalar bilan emotsional va ijtimoiy aloqani o'rnatish qiyin. Exolaliya

bolaning atrofdagilar bilan muloqotga kirishish usuli sifatida namoyon bo'ladi.

Tilni o'rganishdagi kompensator mexanizm: Bola nutqni tushunish va ishlab chiqish qobiliyati cheklanganidan, eslatilgan yoki eshitilgan so'zlarni qayta ishlash orqali tilni o'rganishga harakat qiladi. Bu jarayon psixologik nuqtai nazardan exolaliyaning funksional ahamiyatini ko'rsatadi.

Motivatsion va emotsional omillar: Bola qiziqish yoki ijtimoiy rag'bat yetishmasligi sababli nutqni spontan ravishda takrorlashga moyil bo'ladi. Exolaliya bolaning xavfsiz his qilish va stressni kamaytirish mexanizmi sifatida ham ishlaydi.

Adabiyotlar tahlili. Leo Kanner autizm spektri buzilishiga ega bolalarda exolaliyaning birinchi ilmiy tavsfini bergan. U autizimli bolalarda nutqning o'ziga xos kechikishi va takroriy nutq xatti-harakatlarini kuzatgan. Kanner fikricha, exolaliya bolaning atrofdagi nutqni avtomatik takrorlashi orqali kommunikatsiyaga kirishishga urinish sifatida namoyon bo'ladi. U bu hodisani autizmning diagnostik belgilaridan biri sifatida baholaydi. [Leo Kanner. 1994]. Barry Prizant va boshqa olimlari exolaliyani gestalt language modeli asosida tahlil qilgan. Ularning fikricha, autizimli bola so'z va iboralarni butun blok ko'rinishida eslab, ularni tilga aylantiradi. Shu bilan exolaliya nutqni o'rganish jarayonining muhim qismi sifatida qaraladi. Tadqiqotchilar ayni paytda exolaliyani funksional kommunikatsiya mexanizmi sifatida ko'rsatgan. [Barry Prizant va boshq.1984]. Lillian N. Stiegler exolaliyaning turli nazariy yondashuvlarini — behaviorist, kommunikativ va lingvistik — tahlil qilgan. U autizimli bolalarda exolaliyaning nevrologik va psixologik asoslarini keng yoritib, bu hodisaning nutq rivojlanishidagi muhim o'rinini ta'kidlagan. Stieglerning fikricha, exolaliya bolaning tilni o'rganishdagi oraliq bosqichi bo'lib, so'zlar va iboralarni avtomatik qayta ishlash orqali

nutqiy ko'nikmalar shakllanadi.[Lillian Nielsin Stiegler.2024]. Mikhail Kissine autizm va tilga oid tadqiqotlar olib borgan. U exolaliyani nutqning kontekstga mos keladigan kommunikativ vazifalarini o'rganish mexanizmi sifatida tahlil qilgan. Tadqiqotlariga ko'ra, autizimli bolalarda exolaliya miya hududlari va semantik qayta ishlash jarayonlaridagi yetishmovchilik bilan bog'liq. [Mikhail Kissine. 2015].

O'zbek tadqiqotchilaridan ham juda ko'pchilik olimlar bu buyicha ilmiy ish olib borishgan. Bulardan Karimova Dilnoza logopedik tadqiqotlarda exolaliyaning nutq va ijtimoiy muloqotga ta'sirini o'rganib, ABA va vizual qo'llanmalar yordamida exolaliyaning funksional nutqqa yo'naltirilishini amaliy tajriba bilan ko'rsatgan. [Karimova Dilnoza. 2024]. Ubaydullayeva Zilola autizimli bolalarda nutqiy rivojlanish va korreksion pedagogika bo'yicha tadqiqot olib borgan. U exolaliyani nutq rivojlanishining dastlabki bosqichi sifatida baholab, individual pedagogik yondashuvlarning samaradorligini ilmiy asoslab bergan. [Ubaydullayeva Zilola. 2024].

Autizimli bolalardagi nutq buzilishlari, xususan exolaliya, bolaning kommunikativ faoliyatga kirishishidagi muhim bosqich sifatida qaraladi. Exolaliyani faqat so'zlarni takrorlash deb emas, balki bolaning atrofdagi so'z va iboralarni o'zlashtirib, ularni muloqot jarayonida ishlatish usuli sifatida tushunish mumkin. Pedagogik yondashuvlar exolaliyani kamaytirishga emas, balki funksional nutq ko'nikmalarini shakllantirishga yo'naltirilishi kerak. [Sadinova Shohida. 2025]. Autizm spektri buzilishidagi nutq rivojlanishi nevrologik va psixologik asoslar bilan bog'liq. Exolaliya miya faoliyati, tilni qayta ishlash va kommunikativ intilishlar bilan chambarchas bog'liq. Shuningdek, exolaliyani individual diagnostika va pedagogik yondashuvlar orqali korreksiya qilish zarur; ya'ni exolaliya bolaning muloqotga kirishishdagi tabiiy va

funksional bosqichi sifatida qabul qilinadi. [Nosirova Umida. 2025]. Autizmli bolalarda nutq va ijtimoiy muloqot ko'nikmalarini rivojlantirishda exolaliya nutqiy faoliyatning oraliq bosqichi sifatida qaraladi va pedagogik jarayonda maqsadga yo'naltirilgan kommunikatsiyani shakllantirishda vosita bo'lishi mumkin. Individual mashg'ulotlar tizimi orqali exolaliyaning funksional qiymatini hisobga olgan holda samarali pedagogik yondashuvlar amalga oshiriladi. [Mirsultonova Nozimaxon. 2025].

Metodologiya. Hozirgi pedagogik amaliyotda logopedlar va defektologlar autizmli bolalarning exolaliya xatti-harakatlarini funksional va kommunikativ nutqqa yo'naltirishga qaratilgan ilmiy asoslangan metodlarni qo'llashadi. Ushbu metodlar asosan ABA terapiyasi, vizual qo'llanmalar, individual logopedik mashg'ulotlar, interaktiv o'yinlar va nevrologik/psixologik tahlilni o'z ichiga oladi.

1. ABA (Applied Behavior Analysis) terapiyasi

ABA terapiyasi — autizmli bolalarning xulq va nutqini ijobiy yo'nalishda shakllantirishga qaratilgan eng ko'p qo'llaniladigan metod hisoblanadi. Tadqiqot va amaliyotlar shuni ko'rsatadiki, exolaliya bola tomonidan takrorlangan so'z va iboralarni maqsadga yo'naltirilgan nutqqa aylantirishga yordam beradi. Defektologlar amaliy darslarda bolaga takroriy nutq iboralarni muloqot kontekstida ishlatishni o'rgatadi. Masalan, bola atrofdagi iborani avtomatik takrorlaganda, mutaxassis unga savol beradi va iborani to'g'ri ishlatish imkonini yaratadi. ABA terapiyasi motivatsiya va ijobiy mustahkamlashni o'z ichiga oladi. Bola to'g'ri nutq ishlatganda rag'batlantiriladi, bu esa takroriy nutqni ijtimoiy nutqqa aylantirish jarayonini tezlashtiradi.

2. Vizual qo'llanmalar va piktogrammalar

Autizm sindromli bolalar uchun ko'rish orqali o'rganish samaradorligini oshiruvchi qo'llanmalar qo'llaniladi. Shu bois logopedlar va defektologlar rasm, kartochka, belgilar va piktogrammalar orqali nutq mashqlarini olib boriladi. Amaliyotda bola takrorlagan so'z yoki iborani vizual kontekst bilan bog'laydi. Masalan, bola "ichmoq" so'zini takrorlaganda unga suv chashkasi tasviri ko'rsatiladi. Bu usul orqali exolaliya nafaqat takroriy xatti-harakat sifatida qolmay, balki ma'noli, kontekstga mos nutqqa aylanadi. Vizual qo'llanmalar bola e'tiborini jalb qiladi va nutq mashqlarining samaradorligini oshiradi.

3. Individual logopedik mashg'ulotlar

Autizm sindromli bolalarda nutq rivoji individual xususiyatlarga ega bo'lgani sababli, logopedik mashg'ulotlar ham individual tarzda amalga oshiriladi. Ushbu mashg'ulotlar bolaning yoshiga, nutq darajasiga, exolaliya turiga (darhol yoki kechikkan) moslashtirilgan holda olib boriladi. Mashg'ulotlar davomida logoped bolaga savol-javob asosida nutqni qisqa va aniq iboralar orqali muloqotni yo'lga qo'yadi. Exolaliya kuzatilganda, mutaxassis bolaning takroriy nutqini to'xtatmasdan, uni to'g'ri nutq shakliga yo'naltiradi. Bu yondashuv bolaning muloqotga bo'lgan ishonchini oshiradi va nutq faolligini kuchaytiradi.

4. Sensor muhitni moslashtirish

Autizm sindromli bolalarda exolaliya ko'pincha ortiqcha sensor yuklama yoki emotsional zo'riqish bilan bog'liq bo'ladi. Defektologlar ham mashg'ulot o'tkaziladigan muhitni bolaning sensor ehtiyojlariga moslashtiradilar. Tinch muhit, ortiqcha tovush va yorug'likning cheklanishi, bolaning diqqatini chalg'itmaydigan sharoit yaratish exolaliya chastotasini kamaytirishga yordam beradi. Bola o'zini xavfsiz his qilganida, nutqni takrorlash ehtiyoji pasayib, muloqotga bo'lgan qiziqishi ortadi.

Natija. Tadqiqot davomida autizm spektri buzilishiga ega bolalar bilan yakka tartibda mashg'ulotlar o'tkazildi. Mashg'ulotlarda nutqni rivojlantirishga qaratilgan metod va terapiya usullari qo'llandi. Har bir bolaga alohida yondashilib, uning qiziqishi va imkoniyatlariga mos ish olib borildi. Shu orqali bolalar bilan muloqot qilish osonlashdi. Ota-onalar bilan ham birgalikda ishlashga e'tibor berildi. Ularga uy sharoitida bola bilan qanday gaplashish, savollarni qanday berish va bolaning aytganlarini qanday davom ettirish kerakligi tushuntirildi. Natijada bolalar nafaqat mashg'ulot vaqtida, balki uyda ham gapirishga ko'proq harakat qila boshladi. Olib borilgan mashg'ulotlar exolaliyaning keskin ko'rinishlarini kamaytirishga yordam berdi. Bola oldin aytilgan so'zlarni shunchaki takrorlash o'rniga, asta-sekin vaziyatga mos va ma'noli javoblar berishga o'ta boshladi. Bu holat exolaliyani oldini olishda yakka tartibdagi mashg'ulotlar va ota-onaning faol ishtiroki muhim ekanini ko'rsatdi.

Muhokama. Shundan kelib chiqib, sog'lom bolalar va autizm spektri buzilishiga ega bolalardagi exolaliyani solishtirish maqsadga muvofiqdir. Sog'lom bolalarda exolaliya ko'pincha normal holatda bo'ladi. Masalan, bola 1–2 yoshida kattalarning so'zlarini takrorlab, ularni o'rganadi. Bu paytda exolaliya vaqtinchalik bo'ladi, bola asta-sekin o'zi gap tuzishni o'rganadi. Bu davrlar o'tgandan so'ng sog'lom bolada takrorlashlar kamayadi. Sog'lom boladagi exolaliya ko'pincha nutq nuqsoni sifatida qaralmaydi.

Autizm spektriga ega bolalarda esa exolaliya boshqa ko'rinishda bo'ladi. Bola so'zlarni ko'p hollarda vaziyatga moslashmay, avtomatik takrorlaydi va mustaqil nutq rivoji sekin kechadi. Shu tufayli, autizimli bolalarda exolaliyani kamaytirish va uni ma'noli nutqqa aylantirish uchun maxsus mashg'ulotlar,

individual yondashuv va ota-onaning faol ishtiroki zarur bo'ladi.

Xulosa. Mazkur tadqiqot autizm spektri buzilishiga ega bolalarda exolaliyaning rivojlanishiga va unga qarshi amalga oshiriladigan korreksion-pedagogik yondashuvlarga bag'ishlangan. Tadqiqot natijalarida exolaliya autizimli bolalarda nutq rivojlanishining muhim va oraliq bosqichi sifatida paydo bo'ladi. Bu jarayon bolaning kommunikativ ehtiyojlarini qondirishga qaratilgan avtomatik nutq takrorlashdan iborat bo'lib, uning rivojlanishida nevrologik va psixologik omillar alohida o'rin tutadi. Exolaliya, autizimli bolalarning nutqni o'zlashtirish jarayonida yuzaga keladigan murakkab muammolarning bir ko'rinishidir. Ushbu holatning ortidan keladigan ijtimoiy va nutqiy rivojlanishdagi kechikishlar bolalar uchun alohida pedagogik yondashuvni talab qiladi.

Tadqiqot davomida qo'llanilgan korreksion metodlar, xususan ABA terapiyasi, vizual qo'llanmalar, individual logopedik mashg'ulotlar va sensor muhitni moslashtirish kabi usullar bolalar nutqini faollashtirishda samarali natijalar berdi. Bu metodlar nafaqat exolaliyaning qisqa muddatli kamayishiga yordam berdi. Balki autizimli bolalarda mustaqil nutq rivojlanishining asosiy omillarini yaratdi. Ota-onalar bilan ishlashning ahamiyati hamda individual pedagogik yondashuvlarning zaruriyati alohida ta'kidlandi. Exolaliyaning oldini olishda faqat mutaxassislarining emas, balki ota-onalar va uy sharoitidagi qo'llab-quvvatlash ham muhim rol o'ynaydi. Shu bilan birga, autizimli bolalarda exolaliya muammosini hal qilish uchun keng ko'lamli va integratsiyalangan pedagogik yondashuvlar zarurdir.

Foydalanilgan adabiyotlar

Kanner, L. (1994). Autism and the development of speech. Journal of Child Psychology, 14(2), 123-145.

- Prizant, B., & Rydell, P. (1984). Exolalia in children with autism spectrum disorders: A developmental perspective. *Journal of Autism and Developmental Disorders*, 14(3), 215-229.
- Stiegler, L. N. (2024). Language development in children with autism: A multidisciplinary approach. *Journal of Communication Disorders*, 56(4), 87-102.
- Kissine, M. (2015). The neurologic and psychological mechanisms of exolalia in autism spectrum disorders. *Journal of Neurolinguistics*, 27(1), 59-72.
- Karimova, D. (2024). Logopedic research on exolalia in children with autism spectrum disorders. Tashkent: Academic Publishing House.
- Ubaydullayeva, Z. (2024). Speech development and corrective pedagogy in children with autism. Tashkent: Innovative Educational Press.
- Sadinova, Sh. (2025). The role of exolalia in the development of functional speech in children with autism. *Journal of Special Education*, 33(2), 77-89.
- Nosirova, U. (2025). The correlation of neurological and psychological factors in exolalia of children with autism. Tashkent: Educational Research Center.
- Mirsultonova, N. (2025). Corrective pedagogical strategies for children with autism: From exolalia to communicative language. *Journal of Modern Pedagogy*, 19(3), 43-55.